XALQ DEPUTATLARI TOSHKENT SHAHRI KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 15-aprel VII-8-60-14-0-K/25 Toshkent shahri

Xalq deputatlari Toshkent shahar Kengashining “2025-yil uchun Toshkent shahar mahalliy byudjetini tasdiqlash to‘g‘risida” 2024-yil 26-dekabrdagi VII-4-024-14-0-K/24-son qaroriga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritishto‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-, 24-moddalari, “2025-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi Qonuni hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xizmatlar sohasi barqaror rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2025-yil 27-fevraldagi PQ–78-son qaroriga muvofiq xalq deputatlari Toshkent shahar Kengashi

Q A R O R Q I L A D I:

1. Xalq deputatlari Toshkent shahar Kengashining“2025-yil uchun Toshkent shahar mahalliy byudjetini tasdiqlash to‘g‘risida” 2024-yil 26-dekabrdagi VII-4-024-14-0-K/24-son qaroriga quyidagicha o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilsin:

a) 4-ilovadagi izohi quyidagi 3-band bilan to‘ldirilsin:

“3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Quyi bo‘g‘inda suv resurslarini boshqarish tizimini takomillashtirish hamda suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 5-yanvardagi PQ–5-son qaroriga asosan qishloq xo‘jaligi korxonalari suv solig‘ining 40 foizi suv yetkazib berish xizmatlari uchun Toshkent shahar Kanallardan foydalanish va ularga tutash hududlarni obodonlashtirish boshqarmasining rivojlantirish jamg‘armasiga yo‘naltiriladi”.

b) 8-ilovabirinchi jadval beshinchi ustuni *(Noturar joy uchun (1kv.m uchun)* quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“**Toshkent shahrida mol-mulkni ijaraga beruvchi jismoniy va yuridik shaxslar noturar joylari uchun belgilangan ijara to‘lovi minimal stavkalariga nisbatan zonalar kesmida faoliyat va obyekt turlari bo‘yicha tabaqalashtirilgan oshiruvchikoeffitsiyentlar**

koeffitsiyentda

Zonasi	Omborxona	Ishlab chiqarish	Hunarmand	Xizmat ko‘rsatish	Umumiy ovqatlanish	Boshqalar	Savdo faoliyati	Ofis
1	1,6	1,5	1,5	2,0	2,0	2,0	2,0	2,0

2	1,5	1,4	1,4	2,0	1,9	2,0	2,0	2,0
3	1,4	1,3	1,3	1,7	1,7	1,8	2,0	2,0
4	1,3	1,2	1,2	1,6	1,5	1,6	1,9	1,8
5	1,2	1,1	1,1	1,5	1,4	1,4	1,8	1,5

so'mda

Zonasi	Omborxona	Ishlab chiqarish	Hunarmand	Xizmat ko'rsatish	Umumiy ovqatlanish	Boshqalar	Savdo faoliyati	Ofis
1	72 000	67 500	67 500	90 000	90 000	90 000	90 000	90 000
2	67 500	63 000	63 000	90 000	85 500	90 000	90 000	90 000
3	63 000	58 500	58 500	76 500	76 500	81 000	90 000	90 000
4	58 500	54 000	54 000	72 000	67 500	72 000	85 500	81 000
5	54 000	49 500	49 500	67 500	63 000	63 000	81 000	67 500

**** 2025-yilda 1 kv.m uchun ijara stavkasi 45 000 so'mni tashkil etadi*".

2. Toshkent shahar Soliq boshqarmasi (Y.Nasimdjanov) Toshkent shahrida mol-mulkni ijaraga beruvchi jismoniy va yuridik shaxslar noturar joylarini zonalar kesmida faoliyat va obyekt turlari bo'yicha tabaqalashtirilgan oshiruvchikoeffitsiyentlarda ijara shartnomalari tuzilishi ustidan nazorat qilish vazifasi yuklatilsin.

Bunda, oshiruvchi koeffitsiyentlarbo'yicha kiritilgan o'zgartirishlar soliq organining dasturiy ta'minotida kiritib borish ta'minlansin hamda amalga oshirilgan o'zgarishlar bo'yicha noturar joylarniijaraga beruvchi jismoniy va yuridik shaxslar o'rtasida tushuntirish ishlarini olib borsin.

3. Toshkent shahar hokimligi Matbuot xizmati (G.Kasimova)ga mazkur qaror rasmiy e'lon qilinishi va www.toshkent.uz rasmiy veb-saytiga joylashtirilishini ta'minlash tavsiya etilsin.

4. Mazkur qaror 2025-yil 15-apreldan e'tiboran kuchga kiradi.

5. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari Toshkent shahar Kengashining Mahalliy byudjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi raisi M.Taxirov va Toshkent shahar hokimining birinchi o'rinbosari B.Xaydarov zimmasiga yuklansin.

Kengash raisi

KALANOV RUSTAM ABDUXAKIMOVICH